



MUTOLAA INTELLEKTUAL TARAQQIYOT POYDEVORI

Ziyadullayeva Malika

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
2-kurs talabasi*

Annotatsiya:Ma'lumki,mutolaa tong shabadasi kabi-ruhni uyg'otadi,qalbni tozalaydi. Ushbu maqolada mutolaa madaniyatining mohiyati va shaxs kamolotidagi o'rni va roli haqida qisqacha fikr yuritamiz.Shuningdek,oila,maktab va ommaviy axborot vositalarining kitobxonlik madaniyatni shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.Maqolada mutolaa orqali tafakkur,estetik did va ma'naviyatni yuksaltirishga urg'u beriladi.

Kalit so'zlar:kitobxonlik madaniyati,tafakkur,estetik did,shaxs kamoloti,ma'naviyat va ma'rifat,dunyo tajribasi va boshqalar.

Annotation:As is known, reading is like the morning breeze — it awakens the soul and purifies the heart. This article briefly discusses the essence of reading culture and its role in the development of an individual. It also analyzes the importance of the family, school, and mass media in shaping reading habits. The article emphasizes how reading fosters thinking, aesthetic taste, and spiritual growth.

Keywords:reading culture, thinking, aesthetic taste, personal development, spirituality and enlightenment, global experience, and more.

KIRISH

Mutolaa-bu qalb uchun oziq,tafakkur uchun esa charxpalakdir.Har bir o'qilgan kitob sahifasi hayotimizda yangi qarash,yangi bilim va yangi tushunchalarga eshik ochadi.Axborot asrida yashar ekanmiz mutolaa madaniyati ijtimoiy hayotimizda keyingi o'rinlarda qolib ketayotganligi achinarli holatdir.Millatning tayanchi va ma'naviyatning asosi-mutolaa,uni bugungi kunda rivojlantirish va kengaytirish o'z qo'limizdagi bir imkoniyat demakdir.Kitob o'qish bu shunchaki uni varaqlab imkoniyatdan foydalanish emas,o'zimiz uchun jamiyat uchun manfaat keltiradigan bilimlar va ko'nikmalarni egallash demakdir.

ASOSIY QISM

Barchamizga ma'lumki,avvalo tuzatishni,o'rnak bo'lishni,uqtirishni avvalo yosh nihollardan boshlash samarai natijaga tezroq eltadigan kalitdir.Buyuk mutafakkir olim ham,nom-nishonsiz o'tgan gazzob o'g'ri ham qachonlardir yosh ,qayerga egga o'sha tomonga qarab o'sadigan mo'rt va nimjon navnihol edi.Ularni esa faqat bir narsa bir-biridan ajratib turadi u ham bo'lsa-bilim.Birining ildiziga yoshlikdan ma'naviy ozuqa berilgan bo'lsa,yana birining ildizi esa yaxshi sug'orilmagan.Biri kelajakda mustahkam va mevali,biri esa mevasiz daraxt bo'lib yetishdi.Jamiyatni rivojlantirishni avvalo yoshlardan boshlash lozimligiga bu kichik bir dalil edi xolos.Ularning ilimli,kitobxon,ma'naviyatga



oshno bo'lishi jamiyatimizning kelajakdagi taraqqiyotini belgilaydi. Dunyoning rivojlangan davlatlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2023-yilda haftasiga eng ko'p kitob o'qiydigan mamlakatlar ro'yxatining kuchli uchtaligiga Hindiston, Tailand va Xitoy davlatlari kirgan. Eng achinarli holatlardan biri, O'zbekiston oxirgi o'rinlardan joy olganligini ko'rishimiz mumkin. Anglay olmayotgan fojiamiz aslida shu emasmi?!

Darhaqiqat, kitobxonlik darajasi orqali davlatni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy ahvolini bilish mumkin. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, bir davlatni bosib olgandan so'ng avval kutubxonasini keyin tilini yo'q qilishga harakat qilishgan. Chuqurroq tahlil qiladigan bo'lsak, millatni millat shaklida tutib turadigan narsa aslida ma'naviyat ekanligiga shubha qilmaymiz. Negaki, moddiy boylikni bir nafasda kimdir tortib olishi mumkin, avval sizniki keyin esa kimgadir tegishli bo'lishi aniq, lekin ma'naviy boyligimizni, ya'ni bilimimizni kimdir bizdan tortib ololmaydi.

Shu o'rinda savol yuzaga keladi, mutolaa madaniyatini rivojlantirish va targ'ibotini kengaytirish uchun qaysi tomonlariga va jihatlariga e'tibor berishimiz darkor?!

Birinchi navbatda inson o'zi namuna keyin o'rnak bo'lishi lozim. Biz avvalo, kichik bir oila misolida olib qaraydigan bo'lsak, ota-ona o'zgarishni o'zidan boshlasa, so'zlaridan ko'ra, amallari orqali ko'rsata bilsa ta'sirliroq va manfaatliroq bo'ladi. Kitobxon ota-onadan tarbiya olgan farzand esa ma'naviyatli-madaniyatli va eng asosiysi tarbiyali bo'ladi. Bir farzandni vatanparvar va ma'naviyatli qilib tarbiyalash orqali jamiyatga katta hissa qo'shishimiz mumkin. Yana uyimizda mini kutubxonalarni tashkil qilish va kitob o'qish marafonchalarini farzandlarimiz orasida o'tkazish eng katta yechimlardan biridir.

O'zimiz istiqomat qiladigan hududda kitob yarmarkalarini o'tkazish, jahon adabiyoti, o'zbek adabiyoti, turk adabiyotidagi taniqli asarlar orqali qisqa savol-javob debatlarini tashkil qilish va rag'batlantirish samarali usullardan biridir.

"Mashhurlar kitob o'qisa, xalq qulog'i bilan emas, ko'zi bilan o'rganadi" deganlaridek nafaqat O'zbekistondagi san'at, sport, madaniyat, jamoatchilikda nufuzga ega insonlarni balki yer yuzidagi eng boy odam Elon Muskni misol qilib keltirishimni o'zi yetarli bo'ladi.

Donolarimiz yaxshi so'z-quloqqa, yaxshi amal-yurakka ta'sir etadi" deganlaridek, jamiyatimizda shunday qarashlar mavjud ya'ni jamoat joyida mutolaa qilayotgan kitobxonga nisbatan, o'zidan aqllini yasab olgan, o'qib olim bo'larmiding va shunga o'xshash kesatliq gaplar quloqqa chalinadi. **"Hamma narsani kitobdan qidirsang, hayotni qachon ko'rasan"** ushbu gapni tez-tez eshitamiz. Sizningcha bu kitobga qarshi qo'yilgan fikrlar qanchalik o'rinli deb o'ylaysiz?

Men o'zimning shaxsiy fikrlarim bilan o'rtoqlashadigan bo'lsam, darhaqiqat nazariyadan amaliyotning ustunlik jihati osmon va yerchalik farq qiladi. Kitobdagi nazariya va hayotiy tajribani taqqoslaydigan bo'lsak, 07.09.2025 kunda yuz bergan oy tutilishini misol qilib keltirsam, o'sha kuni fazoda oy yuzasini qorayib qizil rangga kirganini ko'rdim xolos lekin uning sababini mexanizmini va takrorlanish qonuniyatini tushunmayman. Bu esa menda nazariy bilimning yetishmasligi oqibati deb bilaman. Kitobxon, yangi bilimlar



olish uchun harakatdan to'xtamaydigan, kreativ va pozitiv inson" " ha ! " bir joyda o'qigan edim, Yer soyasi Oyni to'sganda bu hodisa yuz beradi" deya ilmiy isbot keltiradi. Kundalik hayotimizdagi biz foydalanadigan ahamiyatsiz kichkina detal ham me'yorlashtirilgan qonuniyat va mexanizmlardan tashkil topgan. Shuning uchun faqat kitobdan qidirmay "hayotni ko'r" deyish noto'g'ri, kitob bizga shu kichik detalni katta ahamiyatini ko'rishimizga imkon beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Har bir inson kitobni o'zining eng yaqin do'stiga aylantirsa, jamiyatimizda ilm, ma'rifat va ezgulik yanada mustahkam ildiz otadi va gullab yashnaydi. Qo'lingizda bitta kitob bormi? Qiziqing, varaqlang yangi bilim, ko'nikma, malaka hosil qilish uchun to'xtamang! Zero, yoshlikda olingan bilim toshga o'yib yozilgan naqshdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1) @<https://mutolaa.com/uz>
- 2) <https://kun.uz/13172148>
- 3) <https://tsuull.uz/sites/default/files/mutolaa>
- 4) Vohidov, E. (2011). *So'z latofati*. Toshkent: O'zbekiston.
- 5) O'rinboyeva D. **"Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish yo'llari."** – "Ma'naviyat va ma'rifat" jurnali, №2, 2021.